



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA
AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

61010200 – Sport faoliyati: kurash
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

61010200 – Sport faoliyati: kurash

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: RAVSHANOV GOLIBJON XAMRAKULOVICH

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: SHUKUROV RAHIM SALIMOVICH

Buxoro davlat universiteti

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260061
Xulosa raqami	1107
Xulosa sanasi	15.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Guliston mahallasi, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy. Guvohnoma: MAS № 0000309, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Sport faoliyati: kurash
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	61010200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000309, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	61010200 – Sport faoliyati: kurash
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	61010200 – Sports Activity: Wrestling
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	61010200 – Спортивная деятельность: борьба
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Murabbiy, jismoniy tarbiya o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Guliston mahallasi, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi aniq tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi shakllantirilgan bo'lib, fakultet, kafedra, o'quv-uslubiy bo'lim, sifatni ta'minlash bo'limi hamda boshqa tegishli tarkibiy bo'linmalarning vazifa va vakolatlari belgilangan. Ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlik ta'lim dasturini rejalashtirish, amalga oshirish va natijadorligini nazorat qilish jarayonlarini izchil tashkil etish imkonini beradi. Ta'lim jarayonini rejalashtirish, muntazam monitoring qilish va natijalarni baholash mexanizmlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular orqali dasturning amalga oshirilish holatini kuzatish, mavjud muammolarni aniqlash va tegishli choralarni belgilash imkoniyati yaratilgan. Sifatni ta'minlash bo'limining alohida tarkibiy birlik sifatida faoliyat yuritishi ichki sifat jarayonlarining mustaqilligi, xolisligi va tizimlilikini ta'minlaydi. Ta'lim dasturini istiqbolda rivojlantirishga qaratilgan reja ishlab chiqilgan, unda ustuvor yo'nalishlar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilangan. Shuningdek, ta'lim dasturini takomillashtirishga manfaatdor tomonlarni jalb qilish, ularning fikr va takliflarini o'rganish hamda qarorlar qabul qilishda hisobga olish mexanizmlari mavjud. Umuman olganda, ta'lim dasturining tashkiliy boshqaruvi, ichki sifatni ta'minlash tizimi va istiqbolli rivojlantirish mexanizmlari belgilangan talablarni bajarish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Ta'lim dasturi ish beruvchilar, soha mutaxassislari, professor-o'qituvchilar, talabalar va bitiruvchilar kabi manfaatdor tomonlar ishtirokida, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda belgilangan tartiblar asosida ishlab chiqilgan. Dasturda ta'limning maqsadi, kutilayotgan o'qitish natijalari va egallanishi lozim bo'lgan kompetensiyalar aniq belgilangan bo'lib, ular kurash yo'nalishining mazmuni va

kasbiy faoliyat talablariga mos keladi. Bitiruvchilarning dasturni ishlab chiqish jarayoniga jalb etilishi uning mazmunini real kasbiy faoliyat tajribasi, amaliy ehtiyojlar va mehnat bozori talablari bilan bog'lash imkonini yaratadi. Kurash yo'nalishiga xos murabbiylik kompetensiyalari bilan pedagogik tayyorgarlikning o'zaro uyg'unlashtirilgani bitiruvchilarning sport mashg'ulotlarini samarali tashkil etishi, ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishi hamda o'z kasbiy vazifalarini talab darajasida bajarishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, ta'lim dasturining maqsadlari, o'qitish natijalari, kompetensiyalari va mazmuni belgilangan talablar hamda yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Hisobot davrida o'quv jarayoni tasdiqlangan o'quv rejalari, fan dasturlari va taqvim rejalari muvofiq izchil va samarali tashkil etilgan. Nazariy mashg'ulotlar amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, bu talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashi hamda kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishi uchun zarur sharoit yaratadi. Kurash yo'nalishida amaliy mashg'ulotlar ulushining yuqoriligi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi, chunki murabbiylik mahorati, sport mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazish ko'nikmalari, asosan, real mashg'ulot muhiti orqali shakllantiriladi. O'quv jarayonida talabalarning amaliy tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratilishi ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatga moslashishiga xizmat qiladi. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash mezonlari aniq hamda shaffof belgilangan, akademik halollikni ta'minlashga qaratilgan tegishli tartib va mexanizmlar joriy etilgan. Umuman olganda, o'quv jarayonining tashkil etilishi, nazariy va amaliy tayyorgarlikning o'zaro bog'liqligi hamda baholash tizimi belgilangan talablarining bajarilishini ta'minlaydi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim talablari va oliy ta'lim muassasasining ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq aniq belgilangan. Qabul kvotalari, tanlov mezonlari, talab etiladigan hujjatlar va qabul jarayonining asosiy bosqichlariga oid ma'lumotlar ochiq e'lon qilinib, abituriyentlarning zarur axborotdan o'z vaqtida foydalanishi ta'minlangan. Qabul jarayonining oshkora va aniq mezonlar asosida tashkil etilishi abituriyentlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga hamda tanlov jarayonining xolisligini ta'minlashga xizmat qiladi. Talabalarni o'qishga qabul qilish, kursdan kursga o'tkazish, akademik ta'til berish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish

jarayonlarini tartibga soluvchi tegishli mexanizmlar shakllantirilgan. Shuningdek, talabalarga o'quv jarayonida zarur axborot, maslahat va amaliy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Umuman olganda, qabul jarayonining shaffofligi, talabalar harakatini tartibga soluvchi mexanizmlar va ularni qo'llab-quvvatlash tizimi talabalarning ta'lim olishlari uchun zarur tashkiliy sharoitlarni yaratadi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun belgilangan me'yoriy talablarga muvofiq pedagog kadrlar, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi hamda o'quv-yordamchi xodimlar tarkibi shakllantirilgan. Mavjud kadrlarning sifat tarkibi, ilmiy darajasi, kasbiy malakasi va mutaxassisligi ta'lim dasturining maqsadlari, o'qitish natijalari hamda yo'nalish xususiyatlariga mos keladi. Kurash yo'nalishida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning amaliy murabbiylik tajribasi va sport sohasidagi yutuqlari nazariy bilimlarni real mashg'ulot jarayonlari bilan bog'lash, ilg'or tajribalarni talabalarga yetkazish hamda ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xodimlarning kasbiy salohiyatini muntazam oshirib borish maqsadida malaka oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlari yaratilgan, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Umuman olganda, ta'lim dasturining malakali kadrlar bilan ta'minlanganligi, professor-o'qituvchilarning nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash tizimi dasturni belgilangan talablar darajasida amalga oshirish imkonini beradi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini belgilangan talablar asosida tashkil etish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnik vositalar, xomashyo materiallari hamda boshqa o'quv-amaliy resurslar yetarli darajada shakllantirilgan. Mavjud moddiy-texnik baza ta'lim dasturining maqsadlari, o'quv jarayoni talablari va yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlariga mos keladi. Kurash yo'nalishi uchun ixtisoslashtirilgan sport zallari, kurash gilamlari va tegishli mashg'ulot inventarlarining mavjudligi talabalarning amaliy ko'nikmalarini xavfsiz va real mashg'ulot sharoitida rivojlantirish, murabbiylik kompetensiyalarini shakllantirish hamda nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash imkonini beradi. Talabalar va professor-o'qituvchilarning o'quv, ilmiy va uslubiy manbalardan foydalanishi uchun tegishli axborot-resurs ta'minoti

yaratilgan, o'quv materiallari va elektron resurslardan foydalanishga xizmat qiluvchi raqamli ta'lim muhiti yo'lga qo'yilgan. Umuman olganda, moddiy-texnik baza, o'quv-amaliy resurslar, sport infratuzilmasi va axborot ta'minoti ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Sport inshootlari va mashg'ulot inventarini muntazam yangilab borish tavsiya etiladi.
- ✓ Sport tashkilotlari va klublar bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Sport inshootlari, mashg'ulot zallari va inventar bazasini yangilab borish.
- ✓ Sport klublari bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti 61010200 – "Sport faoliyati: kurash" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv tizimi yo'lga qo'yilgan va istiqbolli rivojlantirish rejasi ishlab chiqilgan. Dastur mazmuni Davlat ta'lim standartlari va Milliy malakalar ramkasi talablari asosida shakllantirilgan, maqsadlar, o'qitish natijalari va kasbiy kompetensiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ta'minlangan. O'quv jarayoni kredit-modul tizimi talablariga muvofiq tashkil etilib, nazariy tayyorgarlik amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirilgan. Mavjud kadrlar tarkibi belgilangan me'yoriy talablarga javob beradi, professor-o'qituvchilarning

ilmiy salohiyati, kasbiy malakasi va amaliy murabbiylik tajribasi dasturni sifatli amalga oshirish imkonini yaratadi. Moddiy-texnik baza, ixtisoslashtirilgan sport infratuzilmasi, o'quv-amaliy vositalar hamda axborot-resurs ta'minoti ta'lim dasturining xususiyatlari va ehtiyojlariga mos keladi. Barcha boblar bo'yicha o'rganilgan holatlar belgilangan mezonlarga muvofiq bo'lib, aniqlangan ayrim jihatlar dasturni amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi va uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 61010200 – “Sport faoliyati: kurash” bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga mos kelishi sababli MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

